



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2022-yil 19-oktabr

marosimiga oid soʻzlarning aksariyati ot soʻz turkumiga oid va nisbatan kattaroq qismi arab va fors tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlardir. Umuman olganda, badiiy asarlarda qoʻllanilgan sohaga oid soʻzlarni oʻrganish ijodkorning qomusiy bilimlarini ochishga yordam beradi. Qolaversa, asarni chuqurroq tushunish, ijodkor mahoratini anglashda ham koʻmakchi boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
2. Alisher Navoiy “Layli va Majnun”. -Toshkent, 2020.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 1-jild. –Toshkent, 1983.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 2-jild. –Toshkent, 1983.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 3-jild. –Toshkent, 1983.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4-jild. –Toshkent, 1983.
7. Dadaboyev H. Oʻzbek terminologiyasi. –Toshkent, 2019.
8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent, 2007.

OʻZBEK VA TURKMAN TILLARI KONTAKTLARINING OʻRGANILISH TARIXIDAN FROM THE HISTORY OF THE STUDY OF UZBEK AND TURKMEN LANGUAGE CONTACTS

Elyor Alimardanov *

***Annotation.** The article presents the history of the study of Uzbek and Turkmen language contacts, and provides information about the work of Uzbek and Turkmen scientists on the subject. In particular, the researches of M. Saparov, R. Yoldoshev, K. Rahimova, S. Arazkuliyeve are among them. Recommendations were also made regarding the prospective study of Uzbek and Turkmen language contacts.*

***Key words:** Uzbek language, Turkmen language, languages contact, bilingualism, interaction of languages, relations of languages.*

Oʻzbek va turkman tillarining oʻzaro kontaktini ularning tarixi bilan bogʻliq holda tekshirish kontakt tilshunosligining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Asrlar davomida bir geografik muhitda yashagan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada boʻlgan oʻzbek va turkman xalqlari qoldirgan madaniy meros hozirgi va kelajak avlod uchun bebaho xazinadir. “Turkman shoirlari Alisher Navoiyni oʻzlariga ustoz bilib, undan namunalar olganlar. Sheʼriyatda Navoiy izidan borib, uning gʻazallariga muxammaslar, naziralar bogʻlaganlar” [Көчаев, 1963: 25].

Mahtumqulining Navoiyni oʻziga ustoz deb bilishi kabi adabiy aloqalar oʻzbek va turkman xalqlarining asrlardan beri davom etib kelayotgan doʻstona hamkorligi ramzidir. B.Qarrayev shunday deydi: “Oʻzbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy turkman shoirlarining ham maʼnaviy padari, ustoz hisoblanadi. U turkmanlarning eski yozma adabiyoti taraqqiyotiga samarali taʼsir koʻrsatgan. Navoiy asarlarining turkman shoirlari ijodiy faoliyatida oʻynagan roli bebahodir” [Қарраев, 1968.].

Til kontaktlari (lot. contactus – teginish) – ikki yoki undan ortiq tillarning oʻzaro taʼsiri, ularning bir yoki koʻpchiligining tuzilishi va lugʻat tarkibiga taʼsir koʻrsatishidir [https://les.academic.ru/530/контакты_языковы]. Til kontakti obyektii ikki xalq yashaydigan “ikkitilli areal”lar tillari boʻlib, shu jihatdan, oʻzbek va turkman tillari tutashgan hududlarda (oʻzbek va turkman) til kontakti hodisasi roʻy beradi. Aloqadagi ikki tilning unsurlari bir-biriga oʻtib qoladi va mahalliy xalq (ikki xalq tutashgan hudud) vakillari uchun tushunarli, ammo boshqa hududlar uchun biroz, baʼzi holatlarda keskin tushunarsiz “sheva” yuzaga keladi. Tadrijiy tarzda til kontaktlari taraqqiyoti quyidagi kabi boʻladi:

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs doktoranti

Til aloqasi	→	ikkitillilik	→	kreolizatsiya
↳ o‘zaro ta’sir		↳ interferensiya		↳ aralash tillar
leksik		leksik		kreol
morfologik		morfologik		pidjin
fonetik		fonetik		
sintaktik		sintaktik		
stilistik		stilistik		

O‘zbek va turkman tillarining kontaktlari, ularning o‘zaro ta’siri, bir-biriga munosabati masalasi haqida O‘zbekiston turkmanlari va Turkmaniston o‘zbeklari hamda o‘zbek va turkmanlar tutash hududlar shevalarini o‘rgangan tadqiqotchilar ishlarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, M.Saparov [Сапаров, 1980: №3, 35-39-бетлар; Сапаров, 1988], R.Yo‘ldoshev [Йўлдошев, 2002], K.Rahimova [Рахимова, 1982, №3.], S.Arazkuliyevlarning [Аразкулыев, 1962; Аразкулыев, 1961; Аразкулыев, 1978: №5, 72; Аразкулыев, 1987.] tadqiqotlari shular jumlasidandir.

S.Arazkuliye v o‘zining Xorazm viloyati va To‘rtko‘l tumani turkmanlari borasidagi tadqiqotlarida mazkur turkman shevalariga o‘zbek tilining ta’siri borligini qayd etadi. Nomzodlik dissertatsiyasi tadqiqot obyekti bo‘lgan To‘rtko‘l turkmanlari shevalarini tasniflar ekan, mahalliy turkman shevalarini 2 ga ajratadi: o‘zbek ta’sirli turkman shevalari va qoraqalpoq ta’sirli turkman shevalari. Olim o‘zbek ta’sirli turkman shevalariga igdir, duyji, go‘kkan va boshqa urug‘lar vakillarini kiritib, ularning umumiy soni 15 mingga yaqin ekanligini aytadi. Shuningdek, S.Arazkuliye v o‘zbek ta’sirli turkman shevalari haqida quyidagilarni bayon qiladi: hududiy jihatdan turkmanlardan uzilib, asrlar davomida o‘zbeklar bilan aralashib yashash ularning shevalarida bir qancha o‘zgarishlarni yuzaga chiqargan. Bular, asosan, so‘zlarning orfoepik normalari va morfologik formalarida ko‘proq uchraydi. O‘zbeklar bilan yaqinlik faqatgina turkmanlarning tilida emas, balki urf-odatlar ham, ma’lum darajada, o‘zbeklarniki bilan uyg‘unlashgan. Yoshlarning o‘zbek tilida o‘qishlari o‘zbek tiliga bo‘lgan yaqinliklarini yanada kuchaytirgan [Аразкулыев, 1961: 13].

O‘zbek va turkman tillarining munosabatini monografik planda M.Saparov o‘rgangan bo‘lib, u o‘zining “Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o‘zaro munosabatlari” monografiyasida Xorazm vohasidagi (Xorazm dialektal zonasi – A.E.) o‘zbek va turkman tillarining, asosan, leksikasini qisman fonetika va morfologiyasining ta’sirini o‘rganadi va olim ish so‘ngida quyidagi xulosalarini beradi [Сапаров, 1988; 116-117]:

1. Tarixiy-etnografik, xususan, lingvistik faktlar o‘g‘uz lahjasi aholisining turkmanlardan ajralib chiqqanligini, o‘g‘uz lahjasining “turkmanlashgan” ekanligini inkor qiladi. Shu sababli o‘g‘uz lahjasini “turkmanlashgan”, o‘g‘uz lahjasi vakillarini “asli turkmanlardan ajralib chiqqan” deyish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

2. Xorazm vohasidagi o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi va turkman tilidagi mushtarakliklar mazkur lahja va turkman tilining bir xil turkiy sistemaga aloqadorligidan tashqari territorial yaqinlik, o‘g‘uz lahjasi vakillari va turkman xalqining tarixiy tashkil topishida qadimgi turkiy o‘g‘uz komponentining ishtirok etganligi va bu til (o‘zbek-turkman) vakillarining bir xil tabiiy, iqtisodiy, madaniy-siyosiy sharoitda bo‘lganligi asosida ham yuzaga kelgandir.

3. Xorazm vohasidagi turkman tili shevalariga o‘zbek tilining ta’siri tilning barcha yaruslarida uchraydi. Bu territoriyadagi ba’zi bir turkman shevalari o‘zbek tili shevalariga yaqinlashib bormoqda.

Toshhovuz o‘zbek shevalarini tadqiq etgan R.Yo‘ldoshev o‘zining “Toshhovuz viloyatidagi o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida bir faslni shevalar leksikasining turkman tiliga munosabatiga bag‘ishlaydi va leksik jihatdan hududdagi o‘zbek va turkman tillarining o‘zaro ta’sirini bayon etadi [Йўлдошев, 2002: 35-43].

O‘zbek-turkman kontakti haqida Xorazm shevalari yoki turkman shevalari borasida qilingan ba’zi tadqiqotlarda yo‘l-yo‘lakay aytib o‘tilgan. Xususan, F.Abdullayev [Абдуллаев Ф. 1961; Абдуллаев Ф., Сапаров М. 1975 №1.], Y.Jumanazarov [Жуманазаров, 1976.],

N.Maviyev [Мавыев, 1987], A.Shixiyevlarning [Шихиев, 1996.] (Buxoro shevalari bilan) ishlari shular jumlasidandir.

Aytish joizki, ikki til o'zbek-turkman yoki turkman-o'zbek kontaktida "ta'sir" masalasi shartlidir. Sababi: O'zbekiston turkmanlari shevalariga o'zbek tilining ta'siri kuchli bo'lgani kabi, Turkmaniston o'zbek shevalariga turkman tilining ta'siri kuchlidir. Bu arealning qaysi davlat tarkibida bo'lgani bilan bog'liq. Shuningdek, turkman tili shevalar bilan kontakti natijasida til o'zgarishlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, kuzatishlarimizdan ayon bo'ldiki, Surxondaryo viloyati Termiz tumanida yashovchi turkmanlar qipchoq lahjasi vakillari bilan yonma-yon yashashlari sabab ularning shevalarida ham qipchoq unsurlari yuzaga kelgan. Shuningdek, Buxoro shevalarining turkman tiliga ta'sirini A.Shixiyev o'zining monografiyasida qayd qiladi.

Til kontakti jarayonida ikkitillilik juda katta o'rin tutadi. Ikkitillilik – bilingvizm yoki diglossiya terminlari bilan ifodalanadi. Bilingvizmning yuzaga kelish sharoiti, unga ta'sir etadigan faktorlarning xususiyatiga qarab, ikkitillilikning "tabiiy" va "sun'iy" usulda yuzaga kelishi adabiyotlarda qayd etilgan. "Tabiiy" usulda yuzaga keladigan ikkitillilik ko'proq xalqlarning yashash sharoitlari ta'sirida, hayot talablari natijasida sodir bo'ladi. Bunda xalqlarning uzoq yillar davomida olib borgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari asosiy faktor sanaladi. "Sun'iy" ikkitillilik esa o'z ona tilisidan tashqari boshqa bir tilni o'rganish jarayonida yuzaga keladi. O'zbek va turkman ikkitilliligi "tabiiy" yo'l orqali shakllangan hisoblanadi va respublikada to'p bo'lib yashovchi turkmanlar tabiiy sharoitdagi bilingvist hisoblanadi. Shuni aytish joizki, Qoraqalpog'iston turkmanlari esa, uch: o'zbek, turkman, qoraqalpoq tillarida muloqot qiladiki, bu holat tilshunoslikda *trilingvist* (uchtilli) termini bilan yuritiladi.

Qoraqalpoq turkmanlari shevalariga qoraqalpoq tilining ta'siri va ikkitillilik sharoitida interferensiya hodisasining ro'y berishi yuzasidan alohida ish qilingan [Apazov, 2007]. O'zbek va turkman tillarining o'zaro ta'siri borasida Xorazm vohasi (Xorazm dialektal zonasi – A.E.) miqyosida, asosan, leksik, qisman fonetik, morfologik jihatdan ikki tilning munosabatini M.Saparov tadqiqotidagina uchratish mumkin. M.Saparov ishida Xorazm vohasidagi o'zbek tili va turkman tillarida qo'llaniluvchi leksik parallelliklar yuzasidan, xususan, o'zbeklarda bunaqa, turkmanlarda esa, bunday deyiladi qabilidagi tavsifiy xarakterdagi qiyosiy ishdur. Ishda o'zbek-turkman tillarida qo'llaniluvchi leksik birliklar, aksar hollarda, turkiy tillardagi variantlari bilan qiyoslanadi. Shunga ko'ra, mazkur ishni ham to'laqonli o'zbek va turkman tillari kontaktiga bag'ishlangan ish deb bo'lmaydi, lekin kontakt unsurlaridan keng qo'llanilganligini tan olish kerak. Shu jihatdan, o'zbek va turkman tillari kontaktlari, ikkitilli hududlar shevasi, mazkur hududlarda o'zbek va turkman tillarining ta'siri qanday, interferensiya hodisalari kabilar tadqiqini kutayotgan mavzulardandir. Shuningdek, o'zbek-turkman tillari kontaktini o'zbek shevalari bilan ta'siri yuzasidan quyidagicha o'rganish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbek tilining o'g'uz shevalari va turkman tilining o'zaro ta'siri (Xorazm viloyati va Janubiy Qoraqalpoq tumanlari: To'rtko'l, Beruniy, Amudaryo, Ellikqal'a, Toshhovuz viloyatidagi o'zbek va turkmanlar kontakti);

- O'zbek tilining qipchoq shevalari va turkman tilining o'zaro ta'siri (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpoq qipchoq shevali o'zbeklar bilan turkmanlar kontakti);

- O'zbek tilining qarluq shevalari va turkman tilining o'zaro ta'siri (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari, Qoraqalpoq qarluq shevali o'zbeklar bilan turkmanlar kontakti).

Xulosa:

1. O'zbek va turkman tillarining o'zaro kontaktini ularning tarixi bilan bog'liq holda tekshirish kontakt tilshunosligining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

2. O'zbek va turkman tillarining kontaktlari, ularning o'zaro ta'siri, bir-biriga munosabati masalasi haqida O'zbekiston turkmanlari va Turkmaniston o'zbeklari hamda o'zbek va turkmanlar tutash hududlar shevalarini o'rgangan tadqiqotchilar ishlarida kuzatishimiz mumkin.

Xususan, M.Saparov, R.Yo'ldoshev, K.Rahimova, S.Arazkuliyevlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

3. M.Saparov Xorazm vohasidagi o'zbek va turkman tillarining o'zaro munosabatini, asosan, leksik, qisman fonetik, morfologik jihatdan tavsifiy xarakterda qiyoslaydi va u ilk bora o'zbek va turkman tillarining ta'sirini umumplanda o'rganadi. Lekin ishni sof kontakt lingvistik tadqiqot deb bo'lmaydi.

4. O'zbek-turkman kontakti haqida Xorazm shevalari yoki turkman shevalari borasida qilingan ba'zi tadqiqotlarda yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan. Xususan, F.Abdullayev, Y.Jumunazarov, N.Maviyev va A.Shixiyevning (Buxoro shevalari bilan) ishlari shular jumlasidandir.

5. O'zbek va turkman ikkitilliligi "tabiiy" yo'l orqali shakllangan hisoblanadi va respublikada to'p bo'lib yashovchi turkmanlar tabiiy sharoitdagi bilingvist hisoblanadi. Shuni aytish joizki, Qoraqalpog'iston turkmanlari esa, uch o'zbek, turkman, qoraqalpoq tillarida muloqot qiladiki, bu tilshunoslikda trilingvist (uchtilli) termini bilan qo'llaniladi.

6. O'zbek va turkman tillari kontaktlari, ikkitilli hududlar shevasi, mazkur hududlarda o'zbek va turkman tillarining ta'siri qanday, interferensiya hodisalari kabilar tadqiqini kutayotgan mavzulardandir.

7. O'zbek-turkman tillari kontaktini o'zbek shevalari bilan ta'siri yuzasidan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. –Тошкент, 1961.
2. Абдуллаев Ф., Сапаров М. Ўзбек ва туркман тилларидаги лексик параллелликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975 №1.
3. Аразов А. Каракалпакстан түркменлериниң сөйлеў тили менен каракалпақтилиниң өз ара тәсири хәм интерференция кубылылысы. ФФНД. Нукус, 2007. 10-11-бетлар.
4. Аразкулыев С. Говоры туркмен Турткульского района Каракалпакской АССР. АКД. Ашхабад, 1962. О'sha muallif: Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. Ашгабат, 1961.
5. Аразкулыев С. Хорезм түркменлериниң геплешиклери барада кабир мағлуматлар. Изв-я АН ТССР, сер.общ.наук, 1978, №5, с. 72. О'sha muallif: Гарагалпагыстан түркмен геплешиклеринде гарындашлик терминлери. – Ашгабат, 1987
6. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. –Тошкент, 1976.
7. Лингвистической энциклопедический словарь. https://les.academic.ru/530/контакты_языковы
8. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлар. НДД. –Тошкент. 2002.
9. Көсаев М. Эдибият тарыхының кәбир меселелери. Түркмендөвнешир.– Ашгабат, 1963, С. 25.
10. Мавыев Н. Түркмен дилиның арабачы диалекти. – Ашгабат, 1987.
11. Қарриев Б. Навоий ва туркман адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти журналы, 1968. 3-сон.
12. Раҳимова К. Туркманистондаги ўзбек шевалари.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, №3.
13. Сапаров М. Ўзбек ва туркман тилларининг ўзаро муносабатлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, №3.
14. Сапаров М. Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари. – Т.: Фан, 1988.
15. Шихиев А. Туркменские говоры Бухарской области. – Нукус. 1996.

Hayal Asgarli	Karay Türkçesinin Sözcüklerinde Oğuz-Kıpçak Unsurlarını yansıtan Eş Anlamli Kelimeler	408
Dustmurodov M	O'rxun-Enasoy bitiklaridagi mudofaa bilan aloqador terminlar	416
Ubaydullayeva U.	Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida qo'llanilgan motam marosimiga oid so'zlar tahlili	419
Alimardanov E.	O'zbek va turkman tillari kontaktlarining o'rganilish tarixidan	423
Jo'rayev I.	Sirojiddin Alixon Orzuning "Charog'i hidoyat" izohli lug'atida toponimlarning berilishi	427
To'rayeva M.	"Izhorul haq" jurnalidagi maqolalarning til xususiyatlari	432
Tuxtasinova M.	L.Z Budagov lug'atida eski o'zbek adabiy tili leksemalarining mavzu guruhlari tahlili	436
Mamarajabova I.	"Boburnoma"da "vaqt" konseptini ifodalovchi o'z qatlam so'zlari	439
Muhsinjonova Sh.	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida taom nomlarining ifodalanishi	444
Odilova D.	"Qutadg'u bilig" asarida qush nomlari tasnifi	448
Qanoatov J.	"Boburnoma" ning xorij olimlari tomonidan o'rganilishi	452
Safoeva Sh.	"Boburnoma" asarida tabiiy fanlarga oid leksemalar tahlili	454
Suyunova D.	Harbiy nomlar terminologiyasida ma'nodoshlik va shakldoshlik hodisalari	456
Xazratqulova Sh.	Ma'rifatparvar Elbekning o'zbek tilshunosligi rivojida o'rni	459
Ollamova K.	Rus tiliga o'zlashgan umumturkiy so'zlar	462

Adadi 100 nusxa. Hajmi 29,2 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. ofset usulida bosildi.
OOO "BOOKMANY PRINT" bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.